

UZLUKSIZ TA'LIMDA POLITEXNIZM TAMOYILINI QO'LLASH –
TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI
(Fizika fa'ni misolida)

Alqorov Qodir Xolmatovich
A.Qodiriy nomidagi JDPI, O'zbekiston.
e-mail: mr.qodir@bk.ru

Annotasiya: Umumiy o'rta ta'lismi va boshqa ta'limgardar sharoitida fanlarni o'qitishning o'quv - tarbiyaviy samaradorligini oshirishda politexnik ta'lismi berish muhim rol o'yнaydi.

Kalit so'zlar: politexnizm, tamoyili, sifat, uzluksiz ta'lismi, texnikaviy, fundamental, jarayon

Аннотация. Политехническое образование играет важную роль в повышении образовательной эффективности преподавания предметов в контексте общего среднего образования и другого образования.

Ключевые слова. политехника, принцип, качество, технический, фундаментальный, процесс.

Annotation: Polytechnic education plays an important role in increasing the educational effectiveness of teaching subjects in the context of general secondary education and other education.

Keywords: polytechnics, principle, quality, technical, fundamental, process

Uzliksiz ta'lismi tizimida, jumladan umum ta'lismi o'rta maktabalarida fanlarni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan bog'lab o'qitish orqali ta'limiylar, tarbiyaviy rivojlantiruvchi yo'nalishni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim va boshqa ta'limalar sharoitida fanlarni o'qitishning o'quv - tarbiyaviy samaradorligini oshirishda politexnik ta'lim berish muhim rol o'yaydi.

Bir qator muhim g'oyalar turli tavsifdagi o'quv materiallarini bir necha jabhalarda asosiy yo'nalishga ajratishga imkon beradi, ularga:

- ilmiy bilimning sikl (faktlar- muammo gipoteza - nazariy xulosalar - tajriba) harakterga ega ekanligi;
- fundamental fizik nazariyalar va olamning fizik manzarasi;
- fizik nazariyalar, amaliy fizika masalalari va fan texnika taraqqiyotini hozirgi zamon yo'nalishlari.

Bu g'oyalar asosida o'quv materialini umumlashtirish o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishiga, o'quv predmetini mustaqil Respublikamiz rivojlanishi amaliyoti bilan bog'lanishiga, ilmiy - texnikaviy dunyoqarashni shakllantirishga, politexnik ta'limni amalga oshirish va o'quvchilarni ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlashga yordam beradi.

O'qitishning politexnik yo'nalishi muammosi ilgaridan (fan, texnika texnologiya, jamiyat hayotining doimo o'sishi munosabati bilan) dolzarb xisoblanib keltingan.

Bunda uning ikkita: mazmun va jarayon tomoni alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazmun tomoni – dastur va darsliklarga, jarayoniy tomoni – o'qitishning uslublariga va tashkiliy shakllariga qo'yilgan talablar hisoblanadi. O'qitish mazmunining politexnik yo'nalishini kuchaytirish o'quv dasturlari va darsliklari, ma'lum darajada uslubiy qo'llanmalar bilan amalga oshiriladi. Fizika fani asosining mazmunidan tashqari qarab chiqilayotgan qonuniyatlar xalq xo'jaligining muhim sohalaridagi texnik qo'llanishlarni ham kiritish kerakligini talab etadi. Texnik misollarning ko'plarining (lekin har holda chegaralangan miqdorda) tahlillarini berish kerak. Bunda so'nggi o'n yillarda fanda bo'lgan o'zgarishlarni hisobga olish zarur. Unda bosh yo'nalishlardan biri – tabiat qonunlarini ishlab chiqarish maqsadida qo'llanish imkoniyatlari va usullarini

aniqlash hisoblanadi. O'qitish amaliyotida bu yo'nalishni xisobga olish fundamental fizik hodisalarini o'rghanishni va ularning texnik xodisalarini o'rghanishni va ularning texnik qo'llanilishini birlashtirishga olib kelishi lozim.

Bunday maqsad uchun o'rghaniladigan qonuniyatlarini politexnik mazmuni va inson hayotida foydalanish uslublarini ochib beradigan didaktik vositalar kerak bo'ladi.

Shu ma'noda ishqalanish mavzusini o'qitish jarayonida politexnizm tamoyillarini amalga oshirish quyidagilarni ko'zda tutadi:

mantiqiy yo'lni tanlash va hozirgi zamon ilmiy g'oyalarini (ishqalanishiga oid ilmiy va amaliy) hamda texnika va texnologiyalarning rivojlanish an'analarini hisobga olgan holda butun ishqalanish turlarining amaliy yo'nalishini ketma-ket mavzularda amalga oshirish;

politexnik ta'lim mazmuni va maqsadlariga mos keladigan o'qitishning uslublarini tanlash.

Ishqalanish mavzusini o'qitishda amaliy masalalarning mazmunini aniqlashda texnika va texnologiyaning bosh sohalarining fizik asoslarini yoritib berish zarurligidan kelib chiqadi.

Bu texnik ma'lumotlar insoniyatni deyarli hamma sohalaridagi faolyatlarida juda keng qo'llanish imkoniyatiga ega. O'quvchilarning ishqalanishiga oid saviyasini oshirish uchun ishlab chiqarish – texnik materiallining muhimligiga qarab ikki nuqtai nazardan qaralishi mumkin:

- a) ishqalanish qonunlarining texnik qo'llanishining namunasi sifatida;
- b)o'rghanish obyekti sifatida (masalan, ichki yonuv dvigatellari, podshipniklar, tishli uzatmalar, tasmali uzatmalar...);

Yuqoridagi bayon etilganlarga asosan Ishqalanish mavzusini o'qitishda politexnik ta'limni amalga oshirishning quyidagi yo'nalishlarini alohida ta'kidlash mumkin:

1. Hozirgi zamon sanoati va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tamoyillari haqidagi bilimlar bilan o'quvchilarni boyitish va shu asosda ilmiy–texnik fikrlashni kengaytirishni;

2. O'quvchilarda bilimlarni fizik–texnik hal etish uchun qo'llash qobiliyatini va bilim hamda qobiliyatini keng ko'chira olish xususiyatini shakllantirish;

3. Eng ko'p tarqalgan mexanizmlar va zvenolar, transport vositalari, mashinalarda ishqalanish kuchidan foydalanish qobiliyati va malakalarini o'quvchilarda hosil qilish;

Ta'limda politexnizm tamoyilini qo'llashning muhimligini o'qish jarayonida o'r ganilayotgan obyekt hodisalarni hissiy, tafakkuriy va mantiqiy idrok etishga "Jonli mushohada" qilishga imkoniyat yaratishi bilan izohlash mumkin.

Foydalanaligan adabiyotlar

1. Suyurov Q.T. va b. Fizikadan laboratoriya va namoyishli tajriba ishlari – Toshkent, 2003.
2. Sharipov Sh., Abduraimov Sh.S. Kasb ta'limi metodikasi fanidan laboratoriya mashg'ulotlari uchun metodik qo'llanma. Toshkent. TDPU. 2007.
3. Sharipov Sh.S. Kasb-hunar ta'limi tizimida o'quvchilar To'garak ishlarini tashkil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishning uzluksizligi. Monografiya. Toshkent. «FAN», 2005.